

DAVLAT BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O‘ZBEKISTON HAMDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASI

Rahmonov Jasurbek Nosirjon o‘g‘li

“Yoshlar-kelajagimiz” jamg‘armasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: *Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun‘iy intellekt, ma‘lumotlar tahlili va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishda muhim ro‘l o‘ynamoqda. Davlatlar o‘z hukumatlari faoliyatini samarali tashkil etish, fuqarolar bilan aloqalarini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy tizimlarni mustahkamlash maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etmoqdalar. O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruvida qo‘llanilishi so‘nggi yillarda jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. Ushbu maqolada O‘zbekistonning raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi yutuqlari tahlil qilinadi, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tajribasi o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, davlat, davlat-servis, davlat boshqaruvi, elektron hukumat.*

KIRISH

Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy faoliyatning barcha darajalarida, shu jumladan davlat darajasida ham amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish davlat xizmatlarining katta hajmini qamrab olish va nazorat qilish, ularni aholi va biznesga o‘z vaqtida taqdim etish, aholining turli qatlamlarini qamrab olish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar ta‘sirida “davlat” tushunchasining o‘zi o‘zgarib, “davlat-servis” atamasi paydo bo‘lmoqda, bunda aholi va biznesga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida elektron davlat xizmatlari majmuasini taqdim etuvchi raqamli davlat institutlari to‘plami tushuniladi. “Raqamlashtirish” so‘zi aslida yangi atama bo‘lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o‘laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo‘lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Xorijiy davlatlar tajribasi raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvida muvaffaqiyatli qo‘llashning samarali usullarini o‘zida namoyon etadi.

Misol uchun, Estoniya raqamli boshqaruvda ilg‘or davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda fuqarolar o‘z hujjatlarini elektron tarzda boshqaradi, ovoz berish jarayoni onlayn tarzda amalga oshiriladi va barcha davlat xizmatlari raqamli shaklda taqdim etiladi. Fuqarolar bir nechta onlayn platformalarda barcha xizmatlarni (soliq to‘lash, shifokor bilan uchrashuv, davlatga murojaat qilish va boshqalar) olishlari mumkin.

Singapur ham raqamli davlat boshqaruvi bo‘yicha dunyoning eng ilg‘or mamlakatlaridan biridir. Singapur hukumati o‘zining “Smart Nation” strategiyasini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni faol qo‘llamoqda. Bu strategiya doirasida Singapurda “smart” (aqlli) shaharlar yaratish, elektron hukumat tizimlarini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotning o‘rnatilishini ta‘minlashga qaratilgan. Mamlakatda transport tizimi, energetika resurslari va sog‘liqni saqlash sohalarida aqlli texnologiyalar joriy etilgan. Davlat va fuqaro o‘rtasida onlayn aloqalar samarali tashkil etilgan, shuningdek, davlat xizmatlari ko‘rsatishda texnologiya orqali yanada shaffoflik ta‘minlanmoqda.

ASOSIY QISM

Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini aniqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi”dan foydalaniladi. Ushbu indeks Jahon mamlakatlarida axborot jamiyati qanchalik taraqqiy etayotganini belgilab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. BMTning elektron hukumatni rivojlantirish indeksida mamlakatlarning mavqei ularning umumiy indeksi asosida belgilanadi. Bu indeks uch omildan shakllantiriladi:

- davlat hokimiyati organlarining veb-hozirligi (onlayn xizmatlar);
- telekommunikatsiyalar infratuzilmasi;
- inson kapitali.

2024-yilda BMTning yangi so‘rovi natijalari “Barqaror rivojlanish uchun raqamli transformatsiyani kuchaytirish” nomi ostida e‘lon qilindi. Unda O‘zbekiston 193 davlat orasida 6 pog‘ona yuqorilagan holda 63-o‘rinni egalladi. Darhaqiqat, mamlakatimizda davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi so‘nggi yillarda keskin sur‘at bilan rivojlanmoqda. O‘zbekiston 2000-yillarning boshlaridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshlagan. Jumladan, “2013-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. 2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu strategiya davlat boshqaruvini raqamlashtirish, fuqarolar bilan munosabatlarni yaxshilash, iqtisodiyotni raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. O‘z navbatida, O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ko‘plab yutuqlarga olib keldi. Xususan, Prezident farmoni bilan Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi tashkil etildi. “E-hukumat” tizimi yaratildi, bu fuqarolarga davlat xizmatlarini onlayn olish imkonini berdi.

2024-yil yakuniga kelib, YAIDXP platformasi orqali 700 dan ortiq davlat xizmatlari onlayn tarzda taqdim etilmoqda. YAIDXP — bu butunjahon internet tarmog‘ida foydalanuvchilarga O‘zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan

interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)dir. YAIDXP foydalanuvchilar va davlat tashkilotlari o‘rtasida davlat xizmatlari sohasida munosabatlarni masofaviy tashkillashtirilishiga hamda ko‘rsatiladigan xizmatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan ma‘lumotlarni raqamli tahlil qilish orqali davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy holatini yaxshilashga imkon yaratildi. Misol uchun, yirik ma‘lumotlar tahlili orqali soliq tizimi samarali ravishda optimallashtirildi. Startaplar va IT kompaniyalariga yordam beruvchi hukumat dasturlari raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda IT-parklar tashkil etilgandan buyun eksport hajmi 50 barobar oshdi. 2025-yilning dastlabki ikki oyida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki IT va servis xizmatlarini eksport qilishga yo‘naltirilgan 104 ta yangi rezidentlarni qabul qildi. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkidan olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, yangi rezidentlar o‘z faoliyatining dastlabki yilida 2400 dan ziyod ish o‘rinlarini yaratish orqali mamlakatning yuqori texnologiyalar sektorini rivojlantirish va malakali mutaxassislar sonini oshirishga hissa qo‘shishni rejalashtirmoqda. Biznes-rejaga ko‘ra, ular eksportining maqsadli hajmi 31 million dollardan oshib, Shimoliy Amerika, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Turkiya, BAA, Xitoy va boshqa mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Kelgusi yillarda hamda raqamli texnologiyalarni hukumat faoliyatiga joriy etish ishlari jadallik bilan rivojlantirib boriladi. Jumladan, Buxoro, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida “bulutli” ma‘lumotlar markazi ishga tushiriladi. Startaplarga sharoit yaratish uchun Toshkent axborot texnologiyalari va Inxa universitetlarida sun‘iy intellekt bo‘yicha laboratoriyalar ochiladi. Davlat idoralarining 3 ming nafar xodimi, hokimlar va o‘rinbosarlarining bu borada malakasi oshiriladi. 2025-yilda 1 ming 600 ta pochta bo‘linmasida elektron tijorat mahsulotlarini topshirish yo‘lga qo‘yiladi. Raqamli saralash markazi ochilib, bunday tovarlar va pochta jo‘natmalariga ishlov berish sifati yaxshilanadi. 6 mingta yangi tayanch stansiya quriladi. 30 ming kilometr optik tolali kabellar tortilib, qamrovi 98 foiz bo‘ladi. Soha eksportini 1,2 milliard dollarga yetkazish choralari ko‘riladi.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvida samarali va tezkor o‘zgarishlarni amalga oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Xususan, raqamli texnologiyalar davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini avtomatlashtiradi, bu esa byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi. Fuqarolar va tadbirkorlar uchun ariza topshirish, hujjatlar olish va boshqa xizmatlardan foydalanish osonlashadi. Raqamli platformalar yordamida davlat xizmatlari va qarorlar jarayoni yanada shaffof bo‘ladi. Avtomatlashtirilgan tizimlar va ochiq ma‘lumotlar platformalari orqali davlat faoliyati ommaga oshkora bo‘ladi, bu esa korrupsiya xavfini kamaytiradi. Raqamli texnologiyalar fuqarolar bilan davlat o‘rtasida samarali va qulay kommunikatsiyani o‘rnatadi. Onlayn xizmatlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar orqali fuqarolar o‘z talab va shikoyatlarini osongina bildirishi, ularni tezkor hal etish mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalar fuqarolarga davlat siyosatiga faol ishtirok etish

imkoniyatini yaratadi. Raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvida qo'llash iqtisodiyotni raqamlashtirishga olib keladi. Bu yangi biznes modellarini yaratadi, raqamli startaplar va innovatsion kompaniyalar rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, fintech (moliyaviy texnologiyalar) sohasida o'zgarishlar raqamli to'lov tizimlari va onlayn bank xizmatlarining kengayishiga imkon beradi. Raqamli texnologiyalar sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Elektron tibbiy kartalar, onlayn konsultatsiyalar bemorlarga tezkor va sifatli yordam olish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini yaxshilash va o'quvchilarga zamonaviy o'quv resurslarini taqdim etish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida davlat o'z resurslarini va xizmatlarini samarali boshqarish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Bu ma'lumotlar asosida strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Eng muhimi, raqamli transformatsiya yangi ish o'rinlarini yaratadi, ayniqsa IT sohasida. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli platformalarni qo'llash, startaplar yaratish va IT xizmatlarini eksport qilish orqali mamlakat iqtisodiyoti rivojlanadi. Bu nafaqat IT mutaxassislarini, balki boshqa sohalarda ishlovchi xodimlarni ham jalb qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni;
2. “Tashkiliy va axborot tizimlarini raqamlashtirish: Yangi imkoniyatlar va xatarlar”. (2020). O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish vazirligi nashri;
3. “E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development With the addendum on Artificial Intelligence”, 2024;
4. Estonia's Digital Transformation: A Model for the Future? (2019). World Economic Forum. <https://www.weforum.org/>
5. Digital Government in Estonia: Creating the Smart State. (2020). Government of Estonia. <https://e-estonia.com/>
6. Digital Transformation and Governance: Challenges and Opportunities. (2019). Journal of Public Administration and Policy Research. DOI: 10.5897/JPAPR2019.0684
7. “Smart Nation” Strategy of Singapore: Innovations and Key Success Factors. (2021). Singapore Government. <https://www.smartnation.gov.sg/>
8. Government of Singapore's "Smart Nation" Program and its Impact on Urban Governance. (2020). International Journal of Public Administration. DOI: 10.1080/01900692.2020.1798345
9. uza.uz;
10. kun.uz;